

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>

DEPICTION OF THE NATIONAL SPIRIT IN SAID AHMAD'S SHORT STORY "QORAKO'Z MAJNUN"

Mohira Ummatovna Hamrayeva

Researcher

Jizzakh State Pedagogical University (JDPU)

Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: national spirit, national character, folk spirit, value, national mentality, artistic mastery, Said Ahmad.

Received: 03.07.26**Accepted:** 04.07.26**Published:** 05.07.26

Abstract: The article analyzes the artistic expression of the national spirit in Said Ahmad's short story "Qorako'z Majnun." It examines how the author artistically illuminates the spiritual world of the Uzbek people by depicting—in a folk-inspired style—the harmony between humans and nature, the bond between humans and animals, compassion, loyalty, family relationships, and national customs. Furthermore, the article illustrates the writer's skill in crafting a national character and explores the artistic interpretation of the folk worldview, national values, family dynamics, compassion, and the national mentality.

SAID AHMADNING "QORAKO'Z MAJNUN" HIKOYASIDA MILLIY RUH TASVIRI

Mohira Ummatovna Hamraeva

JDPU tadqiqotchisi

Jizzax, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: milliy ruh, milliy xarakter, xalqonalik, qadriyat, milliy mentalitet, badiiy mahorat, Said Ahmad.

Annotatsiya: Maqolada Said Ahmadning "Qorako'z Majnun" hikoyasida milliy ruhning badiiy ifodalanishi tahlil qilinadi. Adibning mazkur hikoyasida inson va tabiat uyg'unligi, inson va jonivor, mehr-oqibat, sadoqat, oilaviy munosabatlar hamda milliy urf-odatlarini xalqona uslubda tasvirlab, o'zbek xalqining ruhiy dunyosini badiiy jihatdan yoritganligi o'rganildi. Shuningdek, yozuvchining asarda milliy xarakterni yaratish mahorati, xalqona dunyoqarash, milliy qadriyat, oilaviy

munosabat, mehr-oqibat hamda milliy mentalitetning badiiy talqini misollar orqali ochib berildi.

ИЗОБРАЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО ДУХА В РАССКАЗЕ САИДА АХМАДА «КОРАКЎЗ МАЖНУН»

Моҳи́ра Умма́товна Ха́мраева

Исследователь

Джизакский государственный педагогический университет (JDPU)

Джизак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: национальный дух, национальный характер, народный дух, ценность, национальный менталитет, художественное мастерство, Саид Ахмад.

Аннотация: В статье анализируется художественное воплощение национального духа в рассказе Саида Ахмада «Коракуз Маджнун». Рассматривается, как автор художественно раскрывает духовный мир узбекского народа, изображая — в стилистике, близкой к народному творчеству, — гармонию человека и природы, связь людей с животными, сострадание, верность, семейные узы и национальные обычаи. Кроме того, в статье демонстрируется мастерство писателя в создании национального характера и исследуется художественная интерпретация народного мировосприятия, национальных ценностей, семейных отношений, сострадания и национального менталитета.

Kirish. Badiiy asarda milliy ruhning ta'sirchanligi yozuvchining badiiy mahorati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, portret, peyzaj, psixologik tahlil, dialog, ichki monolog, ramz, timsol, badiiy detal va xalqona til vositalari milliy ruhni ifoda etishning asosiy poetik omillaridir. Agar ushbu vositalar asar g'oyasi bilan uyg'unlashsa, milliy ruh tabiiy va ishonarli namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, milliy ruh asarning g'oyaviy mazmunini ham, uning estetik ta'sirini ham belgilaydigan muhim omil hisoblanadi.

Ma'lumki, milliy ruh – muayyan xalqning asrlar davomida shakllangan dunyoqarashi, ma'naviy qadriyatlari, urf-odatlar, axloqiy mezonlari, turmush tarzi va milliy xarakterining badiiy aksi hisoblanib, Said Ahmadning “Qorako‘z Majnun” hikoyasida aynan shu jihatlar yetakchi o‘rin tutadi. Darhaqiqat, “Qorako‘z Majnun”da milliy ruh, avvalo voqealar orqali emas, balki qahramonlarning ruhiy holati, nutqi, xalqona til, xatti-harakati, urf-odati va ramziy obrazlar orqali badiiy jihatdan mujassamlashtirilgan. Bir so‘z bilan aytganda, hikoyada qahramonlarning hayot tarzi va ma'naviy dunyosi orqali namoyon bo'lib, unda inson va jonivor munosabati orqali

xalqning ma'naviy olami, bag'rikengligi va milliy ruhi ta'sirchan badiiy obrazlarda aks ettirilgan. Asardagi personajlar o'zbek xalqiga xos mehribonlik, oqko'ngillik, sadoqat va insonparvarlik fazilatlarini o'zida namoyon qilgan. Hikoya markazida inson bilan it o'rtasidagi munosabat emas, balki mehr va vafoni qadrlaydigan milliy tafakkur turibdi. Qorako'z Majnun obrazi nafaqat sodiq jonivor, balki inson qalbidagi ezgulikni ochib beruvchi badiiy vosita vazifasini bajaradi. Shu bois yozuvchi jonivor taqdiri orqali inson ma'naviyatini ko'rsatishga erishadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Said Ahmad nasrining o'ziga xos xususiyatlaridan biri milliy hayot haqiqatini badiiy vositalar yordamida ishonarli va ta'sirchan ifoda etish[1;2;3;4;5]dir. Adib voqelikni oddiy tasvirlash bilan cheklanmay, portret, psixologik tahlil, badiiy detal, dialog, xalqona til, ramz va timsollar tizimi orqali milliy ruhni ochib beradi. Hikoyadagi uch asosiy obraz bir-birini to'ldirib, yaxlit badiiy tizimni hosil qiladi. Zero, "yozuvchi badiiy mahorati – taxayyul va tafakkuri imkoniyatlari inson obrazini har tomonlama mukammal yaratishga qaratiladi. Inson obrazini yuksaltirishning eng muhim omili – birinchi navbatda uning botiniy olamini ochib berishdir. Negaki, tashqi olam ta'siri ham inson botinida o'z aksini topadi va bo'y ko'rsatadi"[6;24]. Hikoyada Qorako'z – sadoqat va vafoning, Saodat aya – mehr-oqibat va milliy ma'naviyatning, Qumrixon esa tarbiya jarayonida shakllanayotgan yosh avlodning badiiy timsolidir. Adib mazkur obrazlarni qarama-qarshi qo'yish orqali emas, balki ularning o'zaro ta'siri vositasida milliy qadriyatlarning hayotiy ahamiyatini ko'rsatadi. Obrazlar o'rtasidagi munosabatlar orqali mehr-oqibat, sabr, bag'rikenglik, kechirimlilik va insoniylik kabi fazilatlar umumlashtiriladi.

Natijalar va muhokama. Hikoya Qur'oni karimdan epigraf keltirish bilan boshlanadi, chunki o'zbek xalqi ma'naviyatida din va axloq muhim o'rin tutadi: "Sizlardan qaysi biringiz o'z dinidan qaytsa va shu kofirligicha o'lsa, bas, ana o'shalarning (qilgan savobli) amallari xabata (bekor) bo'lur, ular do'zax ahlidurlar va u yerda mangu qolurlar" (Baqara surasi, 217-oyat) [7;52]. Hikoyaning shu tarzda boshlanishi orqali asarning ma'naviy-falsafiy negizini belgilab beradi. Epigraf vazifasini bajarayotgan bu iqtibos voqealarni nafaqat maishiy, balki diniy-axloqiy mezonlar asosida anglashga yo'naltiradi. Epigraf vazifasini bajarayotgan Qur'oni karim keyin keltirilgan Hadisi sharifdan keyin Baqara surasi, 217-oyatdan: "Jannatga kiradigan o'n nafar hayvondan biri bu "Ashobi kahfning vafodor itidir" (Al-jome al-Kabir) [7;52] oyatida dindand qaytishning oqibati haqida ogohlantiriladi. Bu yerda "daydib qolish" iborasi faqat jismoniy emas, balki ma'naviy sarsonlik ma'nosini ham anglatadi. Hadisda esa "Ashobi Kahf iti"ning vafodorligi ulug'lanadi. Bu ishora keyinchalik asardagi it obrazining oddiy hayvon emas, balki vafo, sadoqat va insonparvarlik ramzi ekanini oldindan sezdiradi. Bu xususida keyinroq batafsilroq to'xtalamiz.

Keyingi voqealarda eri vafot etgan, o'g'li uzoqda sarson, qizi baxtsiz kampirning: "Saodat aya bomdod namozini o'qib, joynamoz poyida uzoq o'tirib qoldi"[7;52] deya duo qilishini

yuqoridagi oyat bilan ma'naviy bog'langan deyish mumkin. Muallif o'g'ilning ma'naviy yo'qotilish xavfini ona iztirobi orqali ifoda etadi. Sabr-qanoat kabi fazilatlar sohibasi Saodat kampirning duolari marhum erining haqqiga Qur'on bag'ishlash, yo'ldan adashgan o'g'lining insof topishini so'rash, baxtsiz qizi Qumrining taqdiri yaxshilanishini tilashga qaratilgan: "Bundan uch yil oldin olamdan o'tgan eri usta Turobga atab Qur'on tilovat qildi. O'ris shaharlarida daydib qolib ketgan o'g'li Bo'rixonga xudodan insof tiladi. Baxti ochilmay, guldek umri xazon bo'layotgan qizi Qumriga achinib, shu farishtaginaning yo'lini och, deb Allohga iltijo qildi" [7;52].

Matn mazmunidan ko'rinib turibdiki, yuqoridagi uchala iltijo ham onalik mehri va oila birligi g'oyasini ifoda etadi. Saodat aya o'z dardini odamlarga emas, Allohga aytadi. Ayadagi bu xususiyat esa o'z-o'zidan o'zbek ayollariga xos sabr, tavakkal va matonat fazilatlarini namoyon etgan, asardagi milliy ruhni tasvirini yaqqol namoyon etgan. Hech ikkilanmay aytish mumkinki, Saodat aya obrazida milliy ruhning eng yorqin ifodasi, ya'ni o'zbek onasiga xos ma'naviy fazilatlar mujassam etilgan. Bu jihatlar Saodat ayaning hayotga munosabati, oila a'zolari bilan muomalasi, Qorako'zga ko'rsatgan mehri va insonlarga bo'lgan ishonchi milliy tarbiyaning muhim mezonlari hisoblanadi.

Asarda o'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan ma'naviy qiyofasida bomdod namozi, Qur'on tilovati, marhumlar haqqiga duo qilish muhim o'rin tutadi. Saodat ayaning har sahar shu amallarni ado etishi uning shaxsiy odati emas, balki xalqona turmush tarzining badiiy ifodasi ekanligini ko'rsatadi. Tahlillardan ko'rinib turibdiki, Saodat aya obrazi – o'zbek ayoliga xos e'tiqod, sabr, mehr-shafqat, oilaparvarlik, duogo'ylik fazilatlarining o'zida umumlashtirgan. Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, yozuvchi hikoyada qahramonning faqat tashqi ko'rinishini emas, balki uning ichki dunyosi va ruhiyatini tasvirlash orqali milliy xarakterning yorqin qirralarini ochishga muvofiq bo'lgan. Yuqoridagi parchada milliy muhitni yaratuvchi qator detallar mavjud bomdod namozi, joynamoz, Qur'on tilovat qilish, marhumning haqqiga duo bag'ishlash, farzandlar taqdiri uchun ona duosi. Bu detallar o'zbek xalqining diniy-axloqiy turmush tarzi va ma'naviy qadriyatlarini tabiiy holda aks ettiradi. Ya'ni, joynamoz, Qur'on tilovat, duo, bomdod kabi detallar milliy muhitni tabiiy yaratadi. Muallif milliy ruhni tashqi shiorlar bilan emas, ana shu mayda, lekin ma'nodor urf-odatlar orqali ko'rsatadi.

Hikoyada, avvalo Saodat ayaning hayotdan shikoyat qilgani emas, balki barcha alamu dardini Allohga aytganligi ijodkor tomonidan mohirona tasvirlangan. Bunda muallifning o'ziga xos jihati, Saodat aya obrazi orqali milliy ruhni balandparvoz ta'riflar bilan emas, balki kundalik hayot, ibodat, duo va ona qalbi orqali ko'rsatganligidir. Saodat aya marhum eri usta Turobni unutmaydi, uning haqqiga Qur'on bag'ishlaydi. Bu milliy turmush tarzi va qadriyatlarning tabiiy ifodasi sifatida o'zbek oilasidagi er-xotin vafosi va ajdod xotirasiga hurmat tuyg'usini ifoda etadi.

Hikoyada milliy ruhni ifodalashda portret muhim badiiy vositalardan biri hisoblanadi. Said Ahmad qahramonlarning tashqi qiyofasini keng va batafsil tasvirlashga emas, balki ularning ma'naviy dunyosini ochib beradigan xarakterli chizgilarga e'tibor qaratadi. Ayniqsa, Saodat aya obrazidagi vazminlik, mehribonlik va hayotiy tajriba uning tashqi ko'rinishidan ko'ra muomalasi, ovozi va munosabati orqali namoyon bo'ladi. Bu usul orqali adib milliy ona obrazini umumlashtirilgan badiiy timsol darajasiga ko'taradi. Portretning psixologik vazifasi kuchayishi natijasida qahramonning ichki ma'naviy qiyofasi tashqi belgilardan ustun ahamiyat kasb etadi. Obrazdagi milliy ruhning yana bir muhim jihati onalik mehri bilan bog'liq. Saodat aya o'zining shaxsiy manfaatlari haqida emas, balki farzandlarining taqdiri haqida qayg'uradi. U daydib ketgan o'g'li Bo'rixonning insofga kelishini, baxtsiz qizi Qumrining yo'li ochilishini tilaydi. Bu holat o'zbek onalariga xos fidoyilik, mehr-oqibat va farzandparvarlik fazilatlarini namoyon etadi. Hikoyadagi Saodat aya – mehribon, sabrli, iymonli o'zbek onasi timsoli bo'lsa, Bo'rixon – milliy va ma'naviy ildizlardan uzoqlashgan shaxs sifatida talqin qilinadi. Qumrixon esa – oilaviy munosabatlar va milliy muhitni ochishga xizmat qiluvchi obraz hisoblansa, Qorako'z – sadoqat, vafo va pok muhabbat ramzidir.

Saodat aya tabiatidagi sabr va matonat ham milliy xarakterning muhim belgilaridan sanaladi. U boshiga tushgan musibatlardan nolimaydi, taqdirdan shikoyat qilmaydi. Barcha dardu tashvishlarini Allohga arz qilib, yaxshi kunlardan umid qiladi. Bu esa xalqimizga xos sabr-toqat, shukronalik va tavakkalchilik tuyg'ularini ifoda etadi. Saodat aya obrazida milliy ruh diniy e'tiqod, onalik mehri, sabr-matonat, oilaparvarlik va xalqona ma'naviyat uyg'unligida namoyon bo'ladi. Muallif ushbu obraz orqali o'zbek onasining yuksak insoniy fazilatlarini, milliy qadriyatlarga sodiqligini va ma'naviy go'zalligini ta'sirchan tarzda tasvirlagan. Saodat aya – milliy ruhning badiiy timsoli. Uning obrazida o'zbek onasiga xos diniy e'tiqod, farzandparvarlik, sabr, vafo va duogo'ylik bir butun holda namoyon bo'ladi. Muallif milliylikni qahramonning tashqi qiyofasida emas, balki uning ibodati, duosi, dardi va umidida ko'rsatadi. Shu jihatdan Saodat aya obrazi asardagi milliy ruhni tashuvchi markaziy qahramon vazifasini bajaradi.

Asarda yillar davomida intizorlik bilan kutgan Saodat ayaning o'g'li bilan uchrashuvi ta'sirchan misralarda ifodalangan, uni o'qigan kitobxonni iztirobga tushmay iloji yo'q: "Qayoqlarda yurganding? – dedi kampir o'g'liga. O'g'li onasi nima deyayotganini tushunmay yelka qisdi. Tushunmadingmi? Sen boshqa odam bo'lib ketibsan. Kampir uning yuzlariga qarab ezilib ketdi. Qarib, adoyi tamom bo'пти. Basharasiga ham o'sha tomonlarning nuqsi urib, o'zbekligi qolmabdi" [7;55]. Adib mahorati o'quvchini eng dahshatli manzaraga e'tiborsiz qoldirmasligini uddalay olganida:

"Qumri ona-bolaga supaga joy solib berdi. Kampir bolasiga tikilib mijja qokmadi. Bo'rixon to'ygunicha ichgan edi. Og'zidan gup-gup aroq hidi kelib turibdi. Kampir ro'molining uchi bilan

burnini berkitgancha o'tiribdi. Rostdan ham shu odam mening bolammi, deb o'ylardi kampir. Qarib ketibdi, sochlari to'kilib, boshining yarmi yalang'ochlanib qopti. Ko'p ichadigan odamlardagina bo'ladigan zaxil bir befayzlik zohir edi uning yuzlarida. Ko'zlarining tagi salqigan, tishlari tamakidan jigarrang tusga kirgan. U otasi o'tgan uyda, tuqqan onasiga, jigarlariga begona bo'lib beparvo yotibdi" [7;56].

Mazkur parchada Said Ahmad milliy ruhni, avvalo, ona va farzand munosabatlari orqali ochib beradi. Saodat kampirning kun sanab kutgan o'g'li Bo'rixonni ko'rib quvonishi o'rniga uning ma'naviy tanazzulidan iztirob chekishi asarning eng kuchli psixologik nuqtalaridan birini tashkil etadi. Yozuvchi tashqi portret detallari orqali qahramonning ichki olamini ham ochib beradi. "Og'zidan gup-gup aroq hidi kelib turibdi", "ko'zlarining tagi salqigan", "tishlari tamakidan jigarrang tusga kirgan" kabi detallar Bo'rixonning jismoniy holatinigina emas, balki uning milliy va ma'naviy qadriyatlardan uzoqlashganini ham anglatadi.

Parchaning keyingi qismida retrospeksiya (o'tmishga qaytish) usuli qo'llanadi. "Saodat kampir uni chaqaloqligida xuddi shu supada beshikka belab tebratardi. Uch yoshga kirguncha shu supada bag'rida olib yotgan edi. Bo'rixon do'mboqqina bola bo'lgandi. Uni yomon ko'zdan asrasin, deb kiyimlariga tumoru ko'zmunchoqlar taqib qo'yardi. Sultonimga atab unga kokil qo'ygandi. Olti yoshga to'lganda uni er-xotin Turkistonga olib borib hazrat Yassaviy maqbarasining shayxiga ataganlarini berib, kokilini kesdirishgan, qo'y so'yib xudoyi qilishgan edi" [7;56].

Saodat kampirning o'g'lining bolalik davrini eslashi milliy tarbiya an'alarini yorqin ifodalaydi. Ayniqsa, Turkiston ziyorati va Ahmad Yassaviy maqbarasi bilan bog'liq epizod milliy va diniy qadriyatlarning uyg'unligini ko'rsatadi. Bu lavha o'zbek xalqining farzand tarbiyasida muqaddas qadamjolarga ehtirom, duo va sadaqa kabi an'alar muhim o'rin tutganini badiiy jihatdan asoslaydi. Shuningdek, "Tumor", "ko'zmunchoq", "kokil qo'yish", "Turkistonga olib borish", "Hazrat Yassaviy maqbarasida kokilini kestirish", "qo'y so'yib xudoyi qilish" kabi etnografik detallar o'zbek xalqining diniy-ma'naviy hayoti va urf-odatlarini aks ettiradi. Bu an'alar orqali ota-onaning farzand baxti uchun qilgan ezgu niyatlari, milliy e'tiqodi va xalqona dunyoqarashi namoyon bo'ladi. Muallif milliy muhitni tasvirlashda xalqona til imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanadi. Qahramonlar nutqida qo'llangan murojaat shakllari, duo, tanbeh, lutf va xalqona iboralar ularning milliy muhitga mansubligini belgilaydi. Nutqdagi samimiylik va tabiiylik qahramonlarni hayotga yaqinlashtiradi. Bu til xususiyatlari kitobxonda sun'iylik emas, balki real hayot manzarasi haqidagi tasavvurni uyg'otadi. Xalqona nutq milliy ruhning eng muhim tashuvchilaridan biri sifatida xizmat qiladi. Parchadagi Saodat kampirning: "Rostdan ham shu odam mening bolammi?" degan ichki savoli badiiy-psixologik yukka ega. Bu savol onaning farzandini tanimay qolganini emas, balki uning ma'naviy jihatdan butunlay o'zgarib ketganidan

iztirob chekayotganini ko'rsatadi. Demak, muallif insonning tashqi qiyofasi emas, balki ma'naviy qiyofasi milliy ruhning asosiy mezoni ekanini ta'kidlaydi. Parchaning eng dramatik nuqtasi Bo'rixonning yelkasi va ko'kragi ochilib qolgan paytda Saodat kampirning qattiq seskanishidir. Bu holat oddiy hayrat emas.

“Bo'rixon u yonboshidan bu yonboshiga ag'darildi. Shunda... shunda uning ustidagi oq choyshab sirg'alib yelkalari, ko'ksi ochilib qoldi. Kampir badanidan chayon o'rmalagandek seskandi. O'zini orqaga tashladi.

Bo'rixonning bo'ynidagi zanjir uchida but yaltiradi. Kampirning ko'zlari tindi. Bir dam uni shuur tark qildi. Telbadek sapchib o'rnidan turdiyu ayvon tomonga chekindi...” [7;56]. Yozuvchi shu badiiy detal orqali Bo'rixonning tanasidagi ona uchun mutlaqo kutilmagan belgini (asar kontekstidagi ma'naviy o'zgarish ramzini) ochish arafasida onaning ruhiy holatini yuqori psixologik mahorat bilan tasvirlaydi. Bu epizod ona qalbidagi iztirobning cho'qqisi bo'lib, milliy tarbiya bilan voyaga yetkazilgan farzandning o'z ildizlaridan uzoqlashishi qanday og'riq keltirishini anglatadi. Adabiyotshunos olimning ta'kidlashicha: “Hikoya boshdan-oyoq Said Ahmadga xos tarovatli va maroqli milliy ruh bilan yo'g'rilgan. Nafosat va nazokatga to'la milliy hayot tarzi, udumlarimiz qarshisida begona o'g'lon bu muhit uchun yana ham begonagalasha boradi, oxir-oqibat hatto muruvvatga to'la ona qalbi ham uni rad etadi. “Hoji badal”lik maqomiga ham erishgan onaxon shu gumroh farzandi tufayli alam, o'kinchu armonlar bilan jon taslim etadi”[8;33-34].

Asarda psixologik tasvir milliy ruhni ochishning eng ta'sirchan vositalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Said Ahmad qahramonlarning ichki kechinmalarini ortiqcha dramatizmsiz, hayotiy holatlar orqali ko'rsatadi. Qorako'zga nisbatan bildirilgan mehr, achinish, xavotir yoki norozilik har bir qahramonning ichki dunyosi haqida tasavvur uyg'otadi. Bu kechinmalar orqali insonning axloqiy qiyofasi va milliy tarbiyasi namoyon bo'ladi. Ayniqsa, Saodat ayaning Qorako'zga munosabati uning rahmdilligi, bag'rikengligi va insoniylik tuyg'usining tabiiy ifodasi sifatida talqin qilinadi.

Qorako'z obrazi asarning markaziy badiiy timsollaridan biri hisoblanadi. Muallif mazkur obraz orqali vafo, mehr-oqibat, sadoqat va insoniylik kabi umumbashariy fazilatlarni milliy qadriyatlar bilan uyg'un holda talqin etadi. Qorako'z hikoyada oddiy jonivor emas, balki inson ma'naviyatini baholash mezoniga aylangan ramziy obraz sifatida gavdalanadi. Hikoyaning markaziy timsoli bo'lgan Qorako'z tashqi jihatdan oddiy it bo'lsa-da, asarning g'oyaviy-kompozitsion tizimida u ramziy mazmun kasb etadi. Muallif uni insonlarga xos fazilatlar bilan sun'iy ravishda bezamaydi, balki uning tabiiy xatti-harakatlari orqali inson ma'naviyatini yoritadi. Shu jihatdan Qorako'z obrazi milliy ruhning o'ziga xos badiiy ifodasiga aylanadi. Qorako'zning eng muhim xususiyati – sadoqatdir. O'zbek xalqining ma'naviy merosida sadoqat nafaqat insonlar

o'rtasidagi munosabatlarning, balki ezgulik va insoniylikning ham asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Qorako'z qanday vaziyat bo'lmasin, xonadonga bo'lgan mehri va vafosidan qaytmaydi. Uning uy atrofida aylanishi, ostonada intizor bo'lib kutishi, uy egalariga mehr bilan intilishi orqali adib sadoqatning ma'naviy qimmatini ochib beradi. Qorako'zning boshidan kechirgan holatlari insonlarning ma'naviy qiyofasini sinash vositasiga aylanadi. Asarda kimning unga mehr bilan munosabatda bo'lishi, kimning esa befarq yoki qo'pol muomala qilishi orqali qahramonlarning ichki dunyosi ochiladi. Demak, Qorako'z obrazi mustaqil qahramon bo'lish bilan birga, boshqa personajlarni xarakterlashtiruvchi muhim badiiy vosita vazifasini ham bajaradi.

Muallif Qorako'z orqali xalqimizga xos jonivorlarga mehr-shafqat ko'rsatish, tirik mavjudotga rahm qilish, vafodorlikni qadrlash kabi milliy qadriyatlarni ilgari suradi. Shu ma'noda Qorako'z obrazi insonparvarlik va milliy axloqning ramziy timsoli sifatida namoyon bo'ladi.

Asar davomida Qorako'z Saodat ayaning doimiy hamrohi sifatida tasvirlanadi. U kampirning kayfiyatini his qiladi, uning dardiga sherik bo'ladi va egasiga cheksiz sadoqat ko'rsatadi. Muallif itning har bir harakatini inson ruhiyati bilan uyg'unlashtirib tasvirlaydi. Bu esa obrazning psixologik ta'sirchanligini oshiradi.

Qorako'zning eng muhim xususiyati – uning vafodorligidir. Asarda ayrim farzandlar onaning mehri va xizmatini qadrlay olmagan bir paytda, Qorako'z egasini bir lahza ham tark etmaydi. Shu jihatdan yozuvchi inson va hayvonni qiyoslashni maqsad qilmaydi, balki inson o'zining insoniy fazilatlarini yo'qotsa, tabiatdagi jonivor ham undan yuksak ma'naviy fazilat sohibiga aylanishi mumkinligini badiiy jihatdan asoslaydi. “Ha-a, joningni huzurini bilmay o'l-a! Supurginiyam harom qilding.

– Qo'y, urishma, opasi, Qorako'z hali bola-da!

– Nima deyapsiz, oyijon! Bu it o'lgurga men nega opa bo'larkanman?! – dedi Qumrixon nolib.

– Agar Qorako'zni yana supurgi bilan ursang, unga kosov otsang, bilib qo'y, ukalaringnikiga ketib qolaman.

– Voy, oyijon-ey, it o'lsin, odamdan aziz bo'lmay! Shu itni deb bizni tashlab ketmoqchimisiz? Qo'ying-e!

– Shu bilan ovunib yuribman. Qayoqqa borsam, yonimda. Bir qadam nari ketmaydi. Menga ayt-chi, ukalaring, singillaring haftada bir xabar olsa oladi, olmasa yo'q. Kasalxonada yotganimda shu itgina ko'kragini qorga berib hovlida bir oy deraza tagida yotgan. Senlar qo'ni-qo'shnining qistovi bilan bir-ikki xabar oldilaring, xolos” [7;53].

Matnga e'tibor qaradigan bo'lsak, hikoyaning badiiy qurilishida dialog alohida o'rin tutadi. Qahramonlar nutqi orqali ularning dunyoqarashi, hayotga munosabati, ma'naviy saviyasi va milliy tafakkuri ochiladi. Qumrixon bilan Saodat aya o'rtasidagi suhbatlarda ikki xil ruhiy qarash

to‘qnashadi. Bir tomonda jahl, shoshqaloqlik va hissiyotga beriluvchanlik ko‘rinsa, ikkinchi tomonda vazminlik, hayotiy tajriba va mehr ustuvor turadi. Dialoglar sun‘iy emas, balki xalq og‘zaki nutqiga xos tabiiylik bilan qurilgani uchun ular asarning milliy koloritini yanada kuchaytiradi.

Saodat aya farzand tarbiyasida ham milliy qadriyatlarga tayanadi. U Qumrixonga tanbeh berar ekan, jazolash emas, balki tushuntirish va mehr bilan tarbiyalash yo‘lini tanlaydi. Bu holat xalq pedagogikasiga xos bo‘lgan ma‘naviy yondashuvni ifoda etadi. Ko‘rinib turibdiki, yozuvchi tomonidan Qorako‘zning Saodat ayaga bo‘lgan mehri ayrim insonlarning mehridan ham ustun qilib ko‘rsatiladi. Shu orqali yozuvchi inson va hayvon munosabatini emas, balki inson ma‘naviyatining yuksak yoki tuban darajasini qiyosiy usulda ochib beradi. Qumrixon obrazi hikoyada muayyan psixologik va ijtimoiy vazifani bajaradi. U asar davomida turli ruhiy holatlarni boshdan kechiradi. Avval Qorako‘zga nisbatan achchiqlanish, norozilik va befarqlik kabi munosabatlar ko‘rinsa, voqealar rivoji davomida uning ichki dunyosida o‘zgarish yuz beradi.

Qumrixon milliy qadriyatlarni inkor etuvchi qahramon emas. Aksincha, u hali hayotiy tajribasi yetarli darajada shakllanmagan yosh avlod vakili sifatida tasvirlanadi. Shu sababli uning ayrim xatti-harakatlari hissiyot ta‘sirida sodir bo‘ladi. Muallif aynan shu xususiyat orqali tarbiya va oila muhitining inson kamolotidagi ahamiyatini ko‘rsatadi.

Hikoyaning eng ta‘sirchan obrazi, Saodat ayaning eng sadoqatli hamrohi– Qorako‘zdir. Muallif it obrazini oddiy jonivor sifatida emas, balki vafo, mehr va sadoqatning ramzi darajasiga ko‘targan. Uning mehribonligi va sabr-toqatiga qarshi tarzda ayrim farzandlarining beparvoligi ochib beriladi. Saodat aya vafotidan keyin, Qorako‘zni o‘z egasini izlab sarson bo‘lishi asarning eng ta‘sirchan lavhalaridan biri sifatida o‘quvchi qalbida kuchli emotsional ta‘sir uyg‘otadi. Bu epizodda itning sodiqligi va egasiga bo‘lgan mehri faqat hissiy holat sifatida emas, balki falsafiy mazmun kasb etadi: “Kampirning bolalaridan ikkitasi Toshkentda, bittasi Chirchiqda, ikkitasi Qibrayda yashaydi. U tong otgandan to kun botguncha xammasining uyiga borardi. Kampirni topolmay, horib-charchab qaytib keladi. Bugun ham tong sahardan Qorako‘z chikib ketdi. Pildiragancha Chirchiq tomonga yo‘l oldi” [7;59], natijada shu orqali vafo, mehr va sadoqatning yuksak timsoliga aylanadi. Muallif shu orqali haqiqiy vafo manfaatga emas, mehr va muhabbatga asoslanishini ko‘rsatadi. Obrazning ramziy mohiyati milliy ruhning ifodasida ham muhim vazifa bajaradi. O‘zbek xalqining dunyoqarashida mehr-oqibat, vafo, kattalarga hurmat va uyga sadoqat yuksak qadrlanadi. Muallif aynan shu milliy axloqiy mezonlarni Qorako‘z xarakteri orqali yoritadi. Shuning uchun ham obraz muayyan bir hayvonning emas, balki xalq ma‘naviyatining badiiy timsoli darajasiga ko‘tariladi. Qorako‘z tabiiy pokligi va sadoqati bilan insonlarda so‘nib borayotgan ezgu fazilatlarni saqlab qolgan timsol sifatida namoyon bo‘ladi. Uning muqobili

sifatida moddiy hayot ta'sirida milliy va ma'naviy qadriyatlardan uzoqlashgan Bo'rixon obrazi asar g'oyasini yanada kuchaytiradi.

Bu holat inson uchun eng oliy fazilatlardan biri bo'lgan vafoning badiiy ifodasi hisoblanadi. Qorako'zning Saodat ayaga bo'lgan mehri ayrim insonlarning mehridan ham ustun qilib ko'rsatiladi. Shu orqali yozuvchi inson va hayvon munosabatini emas, balki inson ma'naviyatining yuksak yoki tuban darajasini qiyosiy usulda ochib beradi. Hikoyadagi Qorako'z Majnun obrazi ham milliy kolorit yaratishda ramziy vazifa bajaradi. U nafaqat sadoqat timsoli, balki inson va tabiat uyg'unligi, mehr-muhabbat va ezgulik haqidagi xalqona tasavvurlarni mujassamlashtirgan badiiy obrazdir. Shu jihatdan asarda milliy qadriyatlar ramziy ma'no kasb etadi.

Hikoyada badiiy detal g'oyat muhim vazifani bajaradi. Said Ahmad katta g'oyalarni mayda, lekin mazmundor detallar orqali ifoda etadi. Qorako'zning uy atrofida aylanishi, ostonada kutishi, insonlarga qarashi, ularning har bir munosabatiga ta'sirchan javob qaytarishi kabi detallar uning sadoqatini ko'rsatish bilan birga, insonlarning ma'naviy qiyofasini ham ochib beradi. Bu detallar orqali kitobxon voqeani emas, balki uning ma'naviy mazmunini anglaydi. Adabiyotshunos Umarali Normatov badiiy asarning milliylikini, avvalo, xalq hayotining haqqoniy tasviri, milliy xarakter va xalqona til belgilashini ta'kidlaydi. Bu nazariy qarash "Qorako'z Majnun" hikoyasi misolida ham o'z tasdig'ini topadi. Said Ahmad milliy muhitni tashqi etnografik belgilar orqali emas, balki qahramonlarning ruhiyati, kundalik hayoti va o'zaro munosabatlari orqali ochadi. Hikoyada Saodat ayaning itga oddiy hayvon sifatida emas, balki xonadonning bir a'zosi sifatida munosabatda bo'lishi o'zbek oilasiga xos mehr-muruvvatning badiiy ifodasidir. Bu holat milliy tafakkurning muhim belgilaridan biri hisoblanadi.

Hikoya tili ham milliy qadriyatlarning muhim tashuvchisi hisoblanadi. Qahramonlar nutqida xalqona iboralar, murojaat shakllari, duo va tanbehlar, mehr ifodalovchi so'zlar keng qo'llangan. Bu til vositalari qahramonlarning milliy muhitga mansubligini belgilash bilan birga, asarning milliy koloritini ham kuchaytiradi. Ayniqsa, ona nutqidagi samimiylilik va xalqona ohang uning ma'naviy dunyosi bilan uzviy bog'langan holda namoyon bo'ladi.

Xulosa. Said Ahmadning "Qorako'z Majnun" hikoyasida milliy ruh insonparvarlik, mehr-oqibat, sadoqat, oila muqaddasligi, xalqona til, milliy urf-odatlar va milliy xarakterning uyg'un tasviri orqali yoritilgan. Adib milliy qadriyatlarni balandparvoz shiorlar orqali emas, balki oddiy insonlar hayoti, ularning ruhiy kechinmalari va Qorako'z Majnun obrazining ta'sirchan timsol/i vositasida ochib beradi. Shu bois hikoya nafaqat badiiy jihatdan yuksak, balki milliy o'zlikni anglash, insonparvarlik va ma'naviy tarbiya nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib, "Qorako'z Majnun" hikoyasida milliy ruh portret, psixologik tahlil, dialog, xalqona til, badiiy detal, ramz va timsollar tizimi, kompozitsiya hamda uslubiy vositalarning o'zaro uyg'unligi orqali ifoda etilgan. Adib mazkur badiiy vositalardan mohirona foydalanib, milliy

ma'naviyatning insonparvarlik, mehr-oqibat, sadoqat, bag'rikenglik va axloqiy poklik kabi muhim jihatlarini chuqur estetik mazmunda ochib beradi. Shu bois "Qorako'z Majnun" hikoyasini milliy ruhning badiiy ifodasi nuqtai nazaridan o'zbek hikoyachiligining eng yetuk namunalaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'ljaboev U. Ijodning mashaqqatli yo'li : Said Ahmadning hikoyalari haqida // Sharq yulduzi. – 1989. № 10. – B. 167-172.
2. Tojiev Yu. Said Ahmad va ma'naviyat tarbiyasi // Til va adabiyot ta'limi. – 2010. – № 2. – B. 23-26.
3. Normatov U. Said Ahmad. Adabiy portret. – Toshkent : Adabiyot va san'at nashriyoti 1971. – 91 b.
4. Sultonova M. Yozuvchi uslubiga doir. – Toshkent, 1973.
5. Oripova G. Said Ahmadning "Qorako'z Majnun" hikoyasini o'rganish // Til va adabiyot ta'limi. – 2014. – № 5
6. Pardaeva Zulfiya. "O'zbek romani poetikasi" (Hozirgi o'zbek romanlari misolida). – Toshkent: Tamaddun, 2023. – 184 b.
7. Said Ahmad. Tanlangan asarlar. III jildlik.I jild. Hikoyalar. – Toshkent.: "Sharq" nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati, 2000. – 200 b
8. Normatov U. Ijodning mashaqqatli va nurafshon yo'li // Ufqlarning chin oshig'i. Said Ahmadning ijodiy yo'li, adib bilan uchrashuvlar. – Toshkent.: Yurist mediya markazi, 2008. – 96 b.